

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz

www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz

www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

| BOSH MUHARRIR | | MUNDARIJA |
|---|--|-----------------------|
| Shuhrat Sirojiddinov | | |
| BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI | | MATN SHUNOSLIK |
| Karomat Mullaxo'jayeva | | |
| MAS'UL KOTIB | | |
| Ozoda Tojiboyeva | | |
| TAHRIR HAY'ATI | | |
| Karl Rayxl (Germaniya) | | |
| Isa Habibeyli (Ozarbayjon) | | |
| Seyhan Tanju (Turkiya) | | |
| Almaz Ulvi (Ozarbayjon) | | |
| Benedek Peri (Vengriya) | | |
| Vahit Turk (Turkiya) | | |
| Teymur Kerimli (Ozarbayjon) | | |
| Eunkyung Oh (Koreya) | | |
| Nazef Shahrani (AQSh) | | |
| Boqijon To'xliyev | | |
| Muhammadjon Imomnazarov | | |
| Bilol Yujel (Turkiya) | | |
| Qosimjon Sodiqov | | |
| Zulkumor Xolmanova | | |
| Mustafa O'ner (Turkiya) | | |
| Nurboy Jabborov | | |
| G'aybulla Boboyorov | | |
| Kimura Satoru (Yaponiya) | | |
| Imran Ay (Turkiya) | | |
| Aftondil Erkinov | | |
| Nadir Mamadli (Ozarbayjon) | | |
| Rashid Zohidov | | |
| Otabek Jo'raboyev | | |
| Bulent Bayram (Turkiya) | | |
| Qo'ldosh Pardayev | | |
| Nodirbek Jo'raqo'ziyev | | |
| Oysara Madaliyeva | | |
| Hilola Nazirova | | |
| Oysara Madaliyeva | | MUNDARIJA |
| Alisher Navoiyning 1480-yillar lirkasi tarixiga nazar ("Devoni jadid" yoki "Navodir un-nihoya" qo'lyozmalari asosida) | | 4 |
| Furqat To'xtamuratov | | |
| "Gulshani jovid" qo'lyozmalari tadqiqi | | 40 |
| Parviz Izzatillayev | | |
| "Muhokamat ul-lug'atayn" Eron navoiyshunoslari talqinida | | 57 |
| ADABIYOTSHUNOSLIK | | |
| Tanju Seyhan | | |
| Ali Şir Nevâyi'nin <i>Hired Redifli 4 Gazeli</i> Üzerine Görüşler ve Hired Kavramı | | 72 |
| Kemal Yavuz Ataman | | |
| Nevâyi Düşüncesinde Cemiyetin İmarı ve Nizami | | 102 |
| Ridvan Öztürk | | |
| Afganistanlı Şair Âlim Lebib'in Nevaî Şiirlerine Yazdığı Nazire Gazeller ile Tahmislerin Dilbilimsel Özellikleri | | 118 |
| LINGVISTIKA | | |
| Samixon Ashirboyev | | |
| O'zbek milliy transkripsiyasini yaratish yo'lida | | 131 |
| Baxtiyor Abdushukurov | | |
| Kul tigin bitigtoshidagi ijtimoiy-siyosiy leksika | | 143 |

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOLOGY****Oysara Madalieva**

Insights Into the History Of 'Ali Shir Navā'i's

Lyrics of the 1480s (Based on the manuscripts

Divāni jadid or Nawādir al-nihāya)

4

Furqat Tukhtamuratov

Studying the manuscripts of "Gulshani Javid"

40

Parviz Izzatillayev

"Muhokamat ul-lughatayn" in the interpretation

of Iranian Navoi studies

57

LITERATURE**Tanju Seyhan**

Opinions on Ali Shir Nevāyi's 4 Ghazes with

Hired Redif and the Concept of Hired

72

Kemal Yavuz Ataman

Construction and Order of the Society in Nevāyi

Thought

102

Rıdvan Öztürk

Linguistic Characteristics of the Naziraz Ghazals

and Tahmis Written by Afghanistan Poet Alim

Labib to Nevaî Poems

118

LINGUISTICS**Samikhan Ashirbaev**

On the way to creating the Uzbek national

transcription

131

Bakhtiyor Abdushukurov

Socio-political vocabulary in the epitaph of

Kul-tigin

143

O'zbek milliy transkriptsiyasini yaratish yo'lida

Samixon Ashirboyev¹

Abstrakt

O'zbek milliy transkriptsiyasi masalasi o'tmishda davlat miqyosida qo'yilmagan edi, balki transkriptsiya har bir tadqiqotchining o'z tanlovi bo'lgan. V. V. Reshetov tashabbusi bilan o'zbek shevalarini yozib olishda qo'llanadigan transkriptsiyaning yuzaga kelishi bu sohadagi muammolarni kamaytirgan edi, lekin bu transkriptsiya yangi sharoitda faoliyatda bo'lmasligi aniq bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasida lotin asosidagi yozuvning joriy etilganligiga o'ttiz yil bo'lyapti. Bu davr ichida nashr va matbuot ishlarimizning katta qismi lotin alifbosini asosidagi yozuvda e'lon qilinmoqda. Hozirgi oliy ta'lif muassasalarida o'qiyotgan yoshlar lotin yozuviga to'la o'tishgan. Endilikda ilmiy yozuv nomi bilan yuritib kelingan transkriptsiya tizimini ham lotin yozuvi asosida yaratish davri keldi va uning namunalari paydo bo'ldi. Ushbu maqolada o'zbek milliy transkriptsiyasi tizimini yaratish masalasi yoritilgan va u Xalqaro fonetik alifboning turkologiyada muvaffaqiyat bilan qo'llanayotgan varianti asosida ishlab chiqildi hamda taklif etilayotgan tizim 2016-yildan beri oliy ta'lilda tajriba qilib kelindi.

Kalit so'zlar: *transkriptsiya, transkription belgi, transkription tizim, dialektologiya, Xalqaro fonetik alifbo, tovush, unli va undosh tovush.*

Kirish

Filologik ilmda transkriptsiyaning alohida o'rni bor. Bu tizimning yaratilishi dunyo tilshunosligining katta yutug'i bo'lgan. Ilmda va axborot tizimida transkriptsiyaga deyarli ayni yoki bir-biriga yaqin ta'riflar berilgan. Muhimmi, transkriptsiya nutqqa xos tovush va uning qirralarini ifodalashda yozuvda qo'llanadigan harflar, belgilar (ishoralar) tizimi hisoblanadi. Tilshunoslikda undan nutq tovushining aniqligi talab qilingan o'rinnarda foydalaniladi.

O'zbek til bilimi, uning dialektologiya sohasining rivojlanish

¹ Ashirboyev Samixon – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: samixon.ashirboyev@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-5202-6494

Iqtibos uchun: Ashirboyev, S. 2024. "O'zbek milliy transkriptsiyasini yaratish yo'lida". *Oltin bitiglar* 1: 131 – 142.

bosqichida milliy transkripsiya masalasi kun tartibiga chiqmoqda. Buning tarixiy sabablaridan biri davr tadqiqotchilarining aksariyati o'zbek dialektologiyasini kirill yozuvi asosidagi transkripsiyyada o'rganib kelganligidir, lekin o'sib kelayotgan avlod ta'lif bosqichlarida lotin asosidagi yozuvda savod chiqarganligi va shu yozuvda ish ko'rayotganligi ta'lif jarayonida va tadqiqot olib borishda bu transkripsiyaning istiqbolli bo'lmasligi ham reallashdi. Shuningdek, hozir ham dialektologlarimizning kiril asosidagi transkripsiyyadan foydalanayotganligi o'zbek shevalari bo'yicha tadqiqotlarning xalqaro maydonga chiqishi uchun yo'l bermayotirki, endilikda o'zbek dialektologiyasi fanining yangi sharoitda rivojlanishi uchun muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Demak, dialektologiyaning yangi bosqichdagi taqdiri ko'p jihatdan milliy transkripsiya masalasini uzil-kesil hal qilishga bog'liq bo'lib qoladi. Tan olish kerakki, keyingi 4 yil ichida 8 marta dialektologiyaga bag'ishlangan Xalqaro va Respublika konferensiyalari va unda o'zbek shevalari bo'yicha 800 dan ortiq ma'ruza (maqola) e'lon qilingan bo'lsa-da, yirik dialektologik tadqiqotlar amalga oshirilmadi. To'g'ri, ilmiy tamoyillarga rioya qilinmasa-da, ayrim lug'atlar paydo bo'ldi, lekin bu lug'atlar dialektologlar tomonidan amalga oshirilmadi, balki ular dialektologlar yaratishgan bo'lsa-da, unda transkripsiya tamoyillari hal qilinmay turib, bu ishga kirishilgan. Buni shu lug'atlarning mualliflari kamchiligi deb qarash ham kerak emas, balki hozirga qadar lotin alifbosi asosidagi yagona va rasmiy tan olingan transkripsiya tizimining joriy etilmaganligi bilan izohlash mumkin. Lotin alifbosi asosidagi transkripsiya tizimining dastlabki variantlari yaratildi va u darsliklarda aks ettirildi [Ashirboyev 2016, 21-22; 2021, 26-27; Myrodova 2019, 18-19], lekin bu darsliklarda umumiylit saqlanmagan, shu tufayli bo'lsa kerak, ilmiy ishlar hamon kirill asosidagi transkripsiyyada, qisman, lotin alifbosi asosidagi transkripsiyyada bajarilmoqda va ularda yagona yondashuv, tamoyil namoyon bo'lmayapti. Yirik tadqiqotlarda ham shunday holat kuzatiladi. Bu esa o'zbek dialektologiyasida mavjud turg'unlikning hamon saqlanishiga olib kelmoqda¹.

Milliy transkripsiya sari

Hozirgi kunda ikki yozuvda: ham kirillda, ham lotinda tayyorlangan transkripsiya tizimi namunalari bor. Ma'lumki, dialektologiya, etimologiya, tarixiy fonetika va grammatikaga oid

¹ Darsliklardagi farqlar to'g'risida quyiroqda fikr yuritiladi.

tadqiqotlarni transkriptsiyasiz amalga oshirib bo'lmaydi. O'zbek tilshunosligi shakllana boshlagan davrdanoq transkriptsiyaga ehtiyoj bo'lgan, hatto, unga 20-yillarning davlat arboblari ham e'tibor qaratgan, jumladan, 20-yillarda lotin alifbosiga o'tish chog'ida Nazir To'raqulov "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnaliga xat yo'llab, alifboning ikki: amaliy (praktika) va ilmiy (bilim) alifbolari turlari mavjudligini ko'rsatgan hamda transkriptsiya tizimini ilmiy alifbo deb yuritgan edi [Nazir 1926, 45-49]. Lekin u o'z transkriptsiya tizimini taklif qilgan emas.

Ta'kidlash joizki, 20- va 30-yillardan boshlab keyingi davrlarda ham yozib olingan matnlarda turli xildagi transkriptsiya belgilarini kuzatish mumkin. Prof. Y. D. Polivanov o'zbek shevalarini yozib olishda lotin alifbosiga asoslangan xalqaro transkriptsiyadan foydalanishga harakat qilgan, lekin kirill tizimiga ham ora-orada murojaat qilgan. Bu fikrni uning sobiq Ittifoq Fanlar Akademiyasining "Известия" jurnalidagi maqolasida qo'llagan transkriptsiyasi asosida aytmoqdamiz. Faqat unlilarning o'zini tahlil qilganimizda Turkiston shevasida **i**, **y**, **e**, **ø**, **æ**, **ъ**, **у**, **о**, **а**; Iqon shevasida **i**, **y**, **e**, **ø**, **ε**, **u**, **w**, **a**, **o** transkriptsiya belgilarini qo'llaganki [Поливанов 1929, 515, 528], shuning o'zidan transkriptsiyadagi yagonalikning bo'limganligini ko'rish mumkin. Y. D. Polivanov Turkiston va Iqon shevalarida unli fonemalar uchun qo'llagan belgilarning muvofiqligini quyidagi jadvalga tushirish mumkin:

| | Turkiston shevasida | Iqon shevasida | Fonemaning xususiyati | Turkiston shevasida | Iqon shevasida |
|-----------|---------------------|----------------|-----------------------|---------------------|----------------|
| old qator | ı | i | orqa qator | ъ | w |
| old qator | y | y | orqa qator | u | u |
| old qator | e | e | orqa qator | o | o |
| old qator | ø | ø | orqa qator | a | a |
| old qator | æ | ε | | | |

Ko'rinib turibdiki, birinchidan, transkriptsiya uchun tayanch alifbo tanlanmagan, ya'ni unda lotin alifbosi ham, rus alifbosi (ъ) ham ishtirok etmoqda; ikkinchidan, ayni bir fonema uchun turlicha shakl olingan (ı/i, ъ/w, æ/ε). To'g'ri Y. D. Polivanov o'zbek adabiy tilidagi a fonemasiga ekvivalent bo'la oladigan æ va ε harflari bilan ifodalangan fonemalarning artikulyatsiyasida farq borligini aytadi [Поливанов 1927, 529]. Aslida ular jiddiy farqlar emas, balki bir unlining variatsiyalaridir. Demak, ularni bir alifbo imkoniyatlaridan kelib chiqib yoritish mumkin edi, boshqacha aytganda, uning qo'llagan transkriptsiya belgilari turli tizimdagi

alifboni aks ettirgan. To'g'ri, transkriptiyada boshqa alifbolardan harf (belgi) qabul qilinishi mumkin, shunda ham uning sabablari va isboti bilan amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Afsuski, bu ish amalga oshirilgan emas. Albatta, uning transkriptiyadagi bunday murakkab tizimi keyingi davr tadqiqotchilarining ham chalg'ishiga olib kelmoqda.

Undosh fonemalarda, asosan, turkologiyada qo'llanib kelgan harflardan foydalangan, lekin ba'zi o'rirlarda undan chekinadi, ya'ni γ (g') o'rnida ғ harfini qo'llaydi, vaholanki, turkologiyada γ harfidan foydalanib kelingan [<https://www.google.com>]. To'g'ri, ғ harfi ham xalqaro fonetik alifboda bor, lekin undan foydalanish noqulay.

G'ozi Olim Yunus 1927-yilda "Maorif va o'qitg'uvchi" jurnalida "O'zbek tilining tovushlari" maqolasini e'lon qiladi. Bu maqolada o'zbek shevalaridagi unli va undosh tovushlarga tavsif beradi va tovushlarni uch alifbo tizimini qo'llagan holda yoritib boradi, ya'ni arab harflariga qo'shimcha belgi qo'yish (an'anadagi belgilar va o'zi tomonidan ham) orqali shevadagi xususiyatni ifoda qilgan [Янгибаева 2010, 49-62]. Uning qo'llagan belgilardan ba'zilarini keltirib o'tamiz: ә unlisini Ӑ, Ӗ, Ӯ grafemalari, Ҽ unlisini Ҽ, Ҽ grafemalari bilan, Ӭ unlisini Ӥ va Ӯ grafemalari bilan ifoda qiladiki, bu bilan ayni o'rinda o'sha davr dialektologlarini nazariy jihatdan qurollantirgan ham edi. Bu G'ozi Olim Yunusning shaxsiy tashabbusi bo'lган. Bu tizimini uning keyingi ishlarida ham ko'rish mumkin.

G'ozi Olim Yunus "O'zbek lahçalarini tasnifda bir taçriba" asarida o'zbek shevalaridan material to'plaganda "baynalmilal ilmiy fonetik alifbedan (M.F.F.) foydalanganini ta'kidlaydi, lekin bu fikriga yana shunday izoh beradi: "O'zbekiston bosmaxonalarida ilmiy imloga tegishli harflar yo'qligi sababli bu asardagi o'rnaklarni o'zbek alifbesi bilan berishga majbur bo'ldim" [Qozi Älim Junus 1935, 5]. G'ozi Olim Yunus asarida qo'llagan transkriptiyani tahlil qilganimizda simvol tizimidagi aksariyat harflarga murojaat qilgani ma'lum bo'ldi: Ӯ, Ӱ, Ӳ, Ӷ, Ӹ, ӹ, ӻ, Ӽ, ӽ, Ӿ, ӿ, ӷ kabi. Keyinchalik rus grafikasi asosidagi transkripsiya tizimida qo'llangan harflardan foydalangan (lekin ular G'ozi Olim Yunus aytganidek, shu davrdagi "o'zbek alifbesi" bo'lmasigan), shuningdek, Ӯ (uni old qator unli deb yuritgani holda, matnlarda til orqa unlisini ifoda qilgan), ӵ (uni "ikkinchi daraja ochiq unli" uchun olgan), ӱ, Ӵ, Ӷ, Ӹ, ӹ, Ӽ, ӽ, ӿ, ӷ kabi belgilarni ham zaruriyat uchun ishlatgan va har bir transkription belgining qaysi shevada qanday akustik xususiyati borligini birga ko'rsatib boradi.

Anglashilmoidagi, G'ozi Olimning Xalqaro fonetik alifboden foydalanish istagi bo'lgan, lekin tadqiqotida hali bir tizimga tushmagan transkripsiyan qo'llagan, oqibatda u qo'llagan transkripsiya e'lon qilgan matnlarini (o'rnak) o'qish va tahlil qilishni qiyinlashtirgan, lekin uning shunday tizimni yaratishga bo'lgan intilishini ijobiy baholashimiz zarur.

Bunday xilma-xilliklar boshqa dialektologlar va turkologlarda ham qayd qilinadi. Xullas, transkripsiyada tartibsizliklar yuz bergan, ayni zamonda bu holat har tomonlama ilmiy asoslangan transkripsiya tizimini yaratish zarurligini keltirib chiqargan. Pirovard natijada, fanda ilmiy va amaliy transkripsiya yaratish g'oyasi paydo bo'ldi va bu muammoni dastlab prof. V. V. Reshetov bajardi. U kirill alifbosi asosida o'zbek shevalari uchun qo'llanadigan transkripsiya tizimini ishlab chiqdi va darslikka kiritdi [Решетов, Шоабдурахмонов 1962, 37-41], hozirgacha ham bu tizimdan foydalanilib kelinmoqda¹. To'g'ri, bu ishlanma barcha shevalar uchun majburiy qilib qo'yilmadi, balki har bir dialektolog uchun erkinliklar berilgan o'rinalar ham mavjud edi. Shuning uchun dialektologik ishlarda har bir tadqiqotchi ish boshlashdan avval o'zi qo'llaydigan transkripsiya belgilari to'g'risida ma'lumot berishga majbur bo'lgan. Bu tajriba til tarixiga oid ishlarda ham bor [Абдурахманов 1967, 5]. Bu esa boshqa tilshunoslar uchun o'sha tadqiqot ishini tushunishda ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqargan.

Hatto V.V.Reshetov va Sh. Shoabdurahamonovlarning "O'zbek dialektologiyasi" darsligidan keyin yaratilgan darsliklarda ham transkripsiya asoslarini berishda ularning tizimiga tayanilganligi aytilgan holda, undan chekinish hollari yuz berdiki, bunday ma'lumotlar keyinchalik, avval ta'kidlaganimizdek, dialektologik tadqiqotlardagi lozim bo'lgan mazmunning tushunilishiga va talqiniga jiddiy to'sqinlik qilib kelmoqda.

Darsliklarda transkripsiya tizimini yaratish bo'yicha talablar ham uchraydi. V. V. Reshetov va Sh. Shoabdurahamonovlar har qanday tovushni (bu yerda har bir nutq tovushi demoqchi) ifodalash uchun ayrim belgi (bir belgi demoqchi) olish talab qilinadi, degan fikrni ilgari surishadi [Решетов, Шоабдурахмонов 1962, 36], bu e'tiborli fikr, lekin buning har doim imkoniyai yo'qligini o'zları ham ta'kidlashadi. N.Rajabov esa quyidagi talablarni keltiradi

¹ V. V. Reshetovning kirill yozuvni asosidagi transkripsiyasiga bag'ishlangan maqolasi Nizomiy nomidagi TDPIning (1947) ilmiy to'plamida nashr qilingan. Bu manbadan foydalanish imkoniyati bo'lmasdi, balki bu tizim V. V. Reshetovning Sh. Shoabdurahamonov bilan birga e'lon qilgan "O'zbek dialektologiyasi" darsligiga kiritilganligi uchun shu manba asosida fikr yuritildi.

[Ражабов 1996, 75]:

1. Transkripsiya imlo qoidalari emas, so'zlarning talaffuz xususiyatini ko'zda tutish lozim. Bu qayd talab darajasiga ko'tarilgan emas.

2. Uningcha, transkripsiya bosh harflar qo'llanilmaydi. Bu fikrda haqiqat bor, chunki transkripsiya belgilari faqat kichik harflarda ko'rsatilishi keng tarqalgan, lekin matn yozishda gap boshida va atoqli otlarda shu belgining katta harfidan foydalanish an'anasi bor.

3. Transkripsiya bir harf bir tovushni ifoda qilishi kerak. Bu fikr o'rinali, lekin bu talab ham ba'zan buzilib kelgan. Biz bu talablardan ijobiy baholangan o'rirlarni nazarda tutamiz.

Shuni aytish kerakki, transkripsiya umumiyligini ta'minlashda, albatta, oliy ta'lim muassasalari uchun tayyorlangan darslik va qo'llanmalarda ularning berilishi muhim rol o'yнaydi, boshqacha aytganda, transkripsiya bo'yicha dastlabki tushuncha va ko'nikmalar darslik va qo'llanmalar orqali olinadi. Shu munosabat bilan ularda yagona yondashuvning holatini aniqlash maqsadida kirill alifbosidagi transkripsiya belgilarining darsliklarda berilishini qiyoziy tahlil qilishga harakat qilamiz (unlilar)¹:

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 |
|---|---|------|---|---|---|---|
| а | а | а | а | а | а | а |
| ә | ә | ә | ә | ә | ә | ә |
| Ҷ | Ҷ | Ҷ | Ҷ | Ҷ | Ҷ | Ҷ |
| е | е | е | е | е | е | е |
| Ә | Ә | Ә | Ә | - | Ә | - |
| € | € | € | - | € | € | € |
| и | и | и | и | и | и | и |
| ы | ы | -(ы) | ы | ы | ы | ы |

¹ Raqamlar quyidagi darsliklarni ifoda qiladi:

1. Решетов В. В., Шоабдураҳмонов Ш. 1962. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Ўрта ва олий мактаб.
2. Решетов В. В., Шоабдураҳмонов Ш. 1978. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Ўқитувчи.
3. Ражабов Н. 1996. Ўзбек шевашунослиги. Тошкент: Ўқитувчи.
4. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. 2004. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.
5. Ashirboyev S. 2016. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Navroz.
6. Муродова Н. 2019. Ўзбек диалектологияси. Тошкент: Barkamol fayz media.
7. Ashirboyev S. 2021. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Nodirabegim. Lotin alifbosida yozilgan darsliklardagi kiril asosidagi transkripsiya e'tiborga olinadi.

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ъ | ъ | ъ | ъ | ъ | ъ | ъ |
| ь | ь | ь | ь | ь | ь | ь |
| у | у | у | у | у | у | у |
| ү | ү | ү | ү | ү | ү | ү |
| о | о | о | о | о | о | о |
| ә | ә | ә | ә | ә | ә | ә |
| ў | ў | ў | А | - | ў | - |

Bu jadvaldan ko'rinish turibdiki, V. V. Reshetov ishlab chiqqan transkriptsiyaga asosan amal qilingan, lekin **е, ё, ә, ү, ӯ**, A harflarining qo'llanishida farqlar bor. N. Rajabov transkriptsiyani yoritishda ы unlisini keltirmaydi, lekin shevadan olingan misollar va matnlarda undan foydalanadi.

Undoshlar transkriptsiyasi uchun amaldagi (kirill) harflar olingan, lekin ayrim o'zgarishlar qilingan: нг uchun ң, qorishiq portlovchi ж uchun дж olingan. ң harfining нг uchun olinishini tushunish mumkin, chunki boshqa turkiy tillarda bu harfdan foydalanib kelingan, ammo дж harfiy birikmasining berilishi asossiz edi. Bu esa keyinchalik dialektologik va til tarixi tadqiqotlariida qabul qilinmasligiga sabab bo'lldi. Shuningdek, V. V. Reshetov transkriptsiyasidagi ғ¹, ғ², қ¹, լ¹, нг¹, нг^k, т^w, х¹, қ^x belgilardan ham tadqiqotlarda foydalanimadi, chunki bu belgilar qattiq-yumshoqlikni ifodalash uchun qo'llanadigan bolsa, bu hodisa bir ukladli undoshlardan boshqa barcha undoshlarga xos bo'lgan, aslida bunday belgilarga hojat bo'limgan. Demak, kirill yozuvidan foydalaniman davrda ham transkriptsiya tizimini isloh qilishga hojat bo'lgan.

V. V. Reshetov ishlab chiqqan transkription belgilardan keyingi davr tadqiqotchilari erkin foydalanganlar, ya'ni shaklan bu harflar saqlangan bo'lsa-da, mazmunan boshqa maqsadlarda foydalanganlar.

Lotin yozuviga o'tilgach, transkriptsiya tizimini yaratishga ehtiyoj yuzaga keldi, lekin bu yozuvga o'tishga kirishilmadi. Buning boisi shunda ediki, o'zbek shevalari bo'yicha to'plangan boy meros kirill yozuvi asosidagi transkriptsiyada yozib olingan va nashr etilgan edi. Oliy o'quv yurti talabalari esa lotin yozuvida ta'lim olayotganligi tufayli kirill yozuvi asosidagi transkriptsiyani o'rgatish zarurati bo'lgan. Bunda talabalarimizga o'tmish merosimizdan foydalinish imkoniyati yaratilgan edi. 2016-yildan e'tiboran esa ham lotin, ham kirill harflari ishtirokidagi transkriptsiya tizimi tavsiya qilindi [Ashirboyev 2016, 18-22]. Garchand bunday yondashuv

“o’tish bosqichi” vazifasini bajargan bo’lsa ham, bu transkripsiya amaliy natija bera olmasligi ayon bo’la boshladi, ya’ni ikki tizimdagи transkripsiyanı o’rganish talabalarga qiyinlik qilib qoldi. Buni hisobga olgan holda, to’laligicha lotin yozushi asosida transkripsiya tizimini yaratish va uni o’quv jarayoniga kiritish ma’qul ko’rildi. Shuningdek, bu yaratilgan transkripsiya tizimi faqat shevalarni yozib olish uchun emas, balki tarixiy grammatika ilmida ham baravar qo’llanishini nazarda tutar edi, chunki bu ikki soha uchun alohida-alohida transkripsion sistemaning amal qilishi nafaqat o’quv jaryonida, balki ilmiy ishlarda ham noqulayliklarni keltirib chiqarar edi. Demak, keyingi ikki darslikda aks etgan transkripsiya tizimi har ikkala sohaga baravar xizmat qila olish imkoniyatini berdi. To’g’ri, sheva xususiyatlarini ko’rsatishda belgilar miqdori ko’proq kerak bo’ladi. Lotin alifbosida bu muammo bo’lmadi, balki bu borada lotin grafikasining imkoniyatlari katta ekanligi hisobga olindi. Milliy transkripsiyanı yaratishda oldimizda uch yo’l turgan edi:

1. Hozirgi milliy yozuv asosida ishlab chiqish.
2. “Xalqaro fonetik alifbo” asosiga qurish.
3. Turkologiyada qo’llanayotgan transkripsiyaga tayanish.

Bu transkripsiyanidan ayrim o’zgartirishlar bilan o’zbek olimlari ham foydalanganlar [Sodiqov 2009].

Har uchala alifbo lotin alifbosi asosida yaratilganligi ayon, lekin milliy transkripsiyanı hozirgi milliy yozuvimiz va “Xalqaro fonetik alifbo” unsurlaridan foydalangan holda, turkologiyada qo’llanayotgan transkripsiyaga asoslanib yaratish ma’qul ko’rildi. Bunda:

- bu yozuvlarning bir manbadan kelib chiqqanligi va o’zaro yaqinligi;
- turkologiyada qo’llanayotgan transkripsiyanidan mamlakatimizda ham, xorijda ham keng foydalaniayotganligi;
- o’zbek olimlarining tadqiqot ishlaridan xorijlik olimlar yaqindan tanisha olishlari;
- yosh bo’g’in, ya’ni talabalarimiz, yosh tadqiqotchilarimiz axborot tizimlaridagi turkologiyaga oid ishlardan erkin foydalana olishlari ko’zda tutilmoqda. Endi qabul qilinajak transkripsion belgilar tavsifiga to’xtalamiz:

a – orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unli. Bu harfning kirilldagi va xalqaro transkripsiyanadagi grafik va mazmun xususiyatlari mos keladi.

ä – old qator, quyi-keng, lablanmagan. Turkologiyada keng

qo'llanadi. Bu kirillga asoslangan transkriptsiyada ø grafemasi bilan berilgan.

ä – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan, shahar va shahar tipidagi shevalarimizda hamda tilimiz tarixida fors tilidan o'zlashgan so'zlarda uchraydi. Bu belgidan turkologik ishlarda foydalanilmaydi, o'zbek tili shevalarini o'rganishda ø harfidan foydalanib kelindi. Tavsiya etilayotgan harf xalqaro transkriptsiyada bor. U o'zbek adabiy tilidagi ø unlisiga mos keladi.

e – old qator, o'rta-keng, lablanmagan.

i – old qator, yuqori-tor, lablanmagan, turkologiyada keng foydalaniladi.

ї – orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan. Bu grafemadan ham turkologik ishlarda keng foydalaniladi.

i va **ї** unlilari o'zbek shevalaridagi qisqa tovushni ifodalash uchun (**til**, **qil**), til tarixi matnlari uchun cho'ziq va qisqa oralig'idagi indifferent tovush uchun tavsiya etiladi.

u – orqa qator, yuqori-tor, lablangan. Turkologiyada ham, xalqaro transkriptsiyada ham keng qo'llanadi.

ü – old qator, yuqori-tor, lablangan. Turkologiyada keng foydalaniladi. Kirillga asoslangan transkriptsiyadagi ý grafemasini almashtiradi.

o – orqa qator, o'rta-keng, lablangan. O'zbek adabiy tilidagi **o'** grafemasiga mos keladi.

ö – old qator, o'rta-keng, lablangan. Turkologiyada ham, xalqaro transkriptsiyada ham mavjud. Kirillga asoslangan transkriptsiyadagi ø grafemasini almashtiradi.

O'zbek tilining Namangan shahar, O'sh va Qorabuloq, Iqon kabi shevalari uchun xarakterli bo'lgan hamda o'zbek dialektologlari qo'llab kelgan **e** va ä o'rtasida talaffuz qilinadigan e unlisi o'zbek dialektologiyasiga oid ishlarda qo'llanib kelinmoqda, simvol tizimida ham bor, ehtimol, uni saqlab qolish mumkindir, lekin biz xalqaro transkriptsiyadagi æ harfidan foydalanishni tavsiya etgan bo'lar edik, bu, o'z navbatida, boshqa turkiyzabon dialektologlar uchun umumiy transkripsiya belgisi sifatida qo'llanishiga zamin hozirlagan bo'lar edi.

Shuningdek, tilimiz tarixida qayd qilinadigan va shevalarimizda ham saqlanib qolgan birlamchi cho'ziq unlilarni ifodalashda ikki nuqta (:)dan foydalanishni saqlab qolish zaruriyati bor.

Undoshlarni transkripsiya qilishda quyidagi harflardan foydalanish maqsadga muvofiq: **b**, **č** (amaldagi **ch** o'rnida), **d**, **ð** (til

tarixidagi **dz** qorishiq undoshi uchun) **g, γ** (amaldagi **g'** o'rnida), **h, j** (amaldagi **u** o'rnida), **k, l, m, n, η** (amaldagi **ng** o'rnida), **p, q, r, s, š** (amaldagi **sh** o'rnida), **t, v, ĥ** (amaldagi **j** o'rnida).

Ma'lumki, turkiy tillarda, shu jumladan, tilimiz tarixida va shevalarimizda singarmonizm qonunining mavjudligi undoshlarning ham ikki ukladli bo'lishini taqozo etgan. Shu tufayli ham qadimgi turkiy run yozuvida undoshlarning palatal va velyar variatsiyalarini ifodalashda alohida-alohida belgilar qo'llangan (8). Faqat **q, γ, x, k, g** bir ukladli, ya'ni yo old qator, yo orqa qator bo'lgan. Turkologiyada undoshlarning velyar variantlarini ko'rsatishda ba'zan harf tagiga nuqta qo'yilgan, amaldagi aksariyat ishlarda velyar variatsiyasiga hech qanday qo'shimcha belgi qo'yilmagan, aksincha, harfnинг chap tomoniga akut belgisini qo'yish bilan uning palatal variatsiyasi ifoda qilingan. Bizning nazarimizda ham, keyingi yo'l qulaylikka ega, ya'ni kompyuterda harf tagiga nuqta qo'yishga nisbatan uning ustiga chiziqcha qo'yish osonroqdir. Eng muhimi, u amalda bor.

Xulosa

Yagona milliy transkripsiyaning qabul qilinishi mamlakatimizda dialektologiya, etimologiya va til tarixiga oid ishlarning saviyasini oshirishga, ilm ahli yakdilligini ta'minlashga hamda turkologiyada o'zbek tadqiqotchilari ishlarning kengroq yoyilishiga xizmat qilgan bo'lar edi. Quyida mas'ul organ tasdiqlab berishi lozim bo'lgan **O'zbek Milliy transkripsiysi** loyihasini keltiramiz.

O'zbek Milliy transkripsiysi (tayanch harflar)

Unlilar tizimi

a – orqa qator, quyi-keng, lablanmagan unli.

ä – old qator, quyi-keng, lablanmagan.

ā – orqa qator, quyi-keng, qisman lablangan.

e – old qator, o'rta-keng, lablanmagan.

i – old qator, yuqori-tor, lablanmagan.

ī – orqa qator, yuqori-tor, lablanmagan.

u – orqa qator, yuqori-tor, lablangan.

ü – old qator, yuqori-tor, lablangan.

o – orqa qator, o'rta-keng, lablangan.

ö – old qator, o'rta-keng, lablangan.

æ - old qator, o'rta-keng, lablangan.

Undoshlar tizimi

b, č (ch), d, ḍ (til tarixidagi **dz** qorishiq undoshi uchun), **g, γ (amaldagi g' o'rnila)**, **h, j** (amaldagi **y** o'rnila), **k, l, m, n, ŋ (amaldagi ng o'rnila)**, **p, q, r, s, š (amaldagi sh o'rnila)**, **t, v, ڇ (amaldagi j o'rnila)**.

Shevalardagi fonemalarning variatsiyalari tadqiqotchi tomonidan shu tayanch harflarga qo'shimchha belgilar qo'yish bilan yoki boshqa yozuv tizimidan tayanch harflarga shaklan yaqin keladigan belgilar tanlash bilan amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

- Абдурахманов, Г. 1967. *Исследование по старотюркскому синтаксису*. Москва: Наука.
- Аманжолов, А. С. 2003. *История и теория древнетюркского письма*. Алматы: Мектеп.
- Ashirboev, S. 2016, 2021. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Navroz.
- Hazir. 1926. "O'zbek bilim markaziga". *Maorif va o'qitg'uchi* 10-11.
- Поливанов, Е. Д. 1927. "Говор города Туркестана". *Известия АН СССР. Отд. гуманитарных наук*, 7, Л.
- Qlozi Älim Junus. 1935. *Ozbek lahçalarini tasnifda bir taçribä*. Tâşkent: OzSSR davlat naşrijati.
- Ражабов, Н. 1996. *Ўзбек шевашунослиги*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Решетов, В., Шоабдураҳмонов, Ш. 1962. *Ўзбек диалектологияси*. Тошкент.
- Sodiqov Q. 2009. *Turkiy til tarixi*. Toshkent: TDShI.

On the way to Creating the Uzbek National Transcription

Samikhan Ashirbaev¹

Abstract

In the past, the issue of Uzbek national transcription was not set at the state level, but transcription was the choice of each researcher. The emergence of the transcription used in the recording of Uzbek dialects on the initiative of V.V.Reshetov reduced the problems in this field, but it became clear that this transcription would not work in the new conditions.

¹ Samikhan Ashirbaev – Doctor of Philological Sciences, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

E-mail: samixon.ashirboyev@mail.ru

ORCID ID: 0000-0002-5202-6494

For citation: Ashirbaev, S. 2024. "On the way to Creating the Uzbek National Transcription". *Golden Scripts* 1: 131 – 142.

Thirty years have passed since the introduction of the Latin script in the Republic of Uzbekistan. During this period, most of our publications and press works are published in writing based on the Latin alphabet. Young people studying in modern higher education institutions have completely switched to Latin script. Now the time has come to create the transcription system, known as scientific writing, on the basis of Latin writing, and its examples have appeared. This article describes the creation of the Uzbek national transcription system, and it was developed based on the version of the International Phonetic Alphabet that is successfully used in Turkology, and the proposed system has been experimented in higher education since 2016.

Key words: *transcription, transcription symbol, transcription system, dialectology, International Phonetic Alphabet, sound, vowel and consonant sound.*

References

- Abduraxmanov, G. 1967. *Issledovanie po starotyurkskomu sintaksisu*. Moskva: Nauka.
- Amanjolov, A. S. 2003. *Istoriya i teoriya drevnetyurkskogo pisma*. Almati: Mektep.
- Ashirboev, S. 2016, 2021. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent: Navroz.
- Nazir. 1926. "O'zbek bilim markaziga". *Maorif va o'qitg'uchi* 10-11.
- Polivanov, Y. D. 1927. "Govor goroda Turkestana". *Izvestiya AN SSSR. Otd. gumanitarnix nauk*, 7, L.
- Qlozi Älim Junus. 1935. *Ozbek lahçalarini tasnifda bir taçriba*. Täşkent: OzSSR davlat naşrijati.
- Rajabov, N. 1996. *O'zbek shevashunosligi*. Toshkent: O'qituvchi.
- Reshetov, V., Shoabdurahmonov, Sh. 1962. *O'zbek dialektologiyasi*. Toshkent.
- Sodiqov Q. 2009. *Turkiy til tarixi*. Toshkent: TDShI.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

"Oltin bitiglar – Golden Scripts" jurnali – Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma'naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo'lyozma manbalar, xalq og'zaki ijodi namunalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo'ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiyl talablar

Qo'lyozmalar yil davomida o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochtasiga yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo'yicha MS Word menejerini qo'llash lozim.

Barcha qo'lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

100–150 so'zdan iborat o'zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'limgan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o'ng chetida muallifning ism-familyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.
Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi.
Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasini qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavilda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyası

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyası

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transleteratsiyasini berish ham mymkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mymkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:
[Xondamir, Makorim, 17[±]]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbekadabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]
[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]
[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]
[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu-founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?" *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosiga tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismidan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "The Chicago Manual of Style, 16th Edition" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle.org/> havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Ushbu son “Oltin bitiglar” tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib
ko’chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 03. 2024-yilda ruxsat etildi
Qog’oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog’i: 8

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrdan O’zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro’yxatdan o’tgan.

Jurnal O’zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

“Mashhur-Press” bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili: 100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.:
+99890 900 75 77,
+99894 659 94 62